


Termiz shahrida O'zbekiston-Afg'oniston Biznes-forumi bo'lib o'tmoqda.

Image not found or type unknown



Termiz shahrida O'zbekiston-Afg'oniston Biznes-forumi bo'lib o'tmoqda.
Termiz shahridagi "San'at saroyi" hududidagi so'lim bog'da O'zbekiston va Afg'oniston ishbilarmonlari ishtirokida biznes-forum, hududlar va tarmoqlararo sanoat yarmarkasi

hamda kooperatsiya birjasi, shuningdek, "Made in Uzbekistan" milliy mahsulotlar ko'rgazmasi bo'lib o'tmoqda.

Forumga tadbirkorlar bilan birga Afg'oniston Islom Respublikasining Prezidenti Devoni rahbari Muhammad Shokir Korgar, Afg'oniston Savdo-sanoat palatalari federatsiyasi raisi Ismoil G'azanfar, Balx viloyati voliyi Muhammad Farhod Azimiy singari martabali mehmonlar ham tashrif buyurishgan.

Biznes-forum doirasida tashkil etilayotgan hududlar va tarmoqlararo sanoat yarmarkasi, kooperatsiya birjasi hamda "Made in Uzbekistan" milliy mahsulotlar ko'rgazmasida mamlakatimiz viloyatlari va Surxondaryoda ishlab chiqarilayotgan qurilish mollari, elektrotexnika, charm, tekstil sanoati, qishloq xo'jaligi, avtotransport vositalari va boshqa mahsulotlar, milliy hunarmandlik buyumlari keng namoyish etilmoqda.

Tadbirda, davlatimiz ishbilarmonlari qo'shni Afg'oniston bilan ikki tomonlama foydali shartnomalar imzolashi kutilmoqda.

